XALQ DEPUTATLARI BULOQBOSHI TUMAN KENGASHI QARORI

170500, Buloqboshi t., M.Ismoiliy ko'chasi 6-uy, Telefon: (74) 7732560 e-mail: buloqboshi@exat.uz

2023 - yil 10 - yanvar VI-61-1-1-20-K/23 Buloqboshi tumani hokimligi

Buloqboshi tumanidagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risida

Andijon viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyasining 2021-yil 25-noyabrdagi 11-34/15-sonli murojaaatnomasi va unda qayd etilgan Andijon viloyati komissiyasining Buloqboshi tumanidagi 19 ta obyektni nomlash, qayta nomlash va davlat reyestr bazasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o'rganib chiqildi. 2021 yil noyabr oyida Respublika kadastr agentligi tomonidan berilgan ro'yxatda 4 ta maxalla va 5 ta ko'cha nomlari nomunosib va 12 ta MFYlarda ko'cha nomlari takrorlanayotgani ko'rsatilgan. Tuman komissiyasi o'rganib chiqib Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha viloyat komissiyasiga va respublika kadastr agentligi ekspertizasiga o‘z tavsiyalarini yuborgan.

Respublika kadastr agentligi qoshidagi ekspertlar tuman komissiyasi tavsiyalarini o‘rganib chiqib o‘z xulosalarini bergan.

Respublika ekspertiza xulosasiga asosan, MFY va ko‘cha nomlarini qayta nomlash va 4 ta yangi tashkil etilgan ko‘chalarga nom berilishi (Respublika kadastr agentligi ekspertiza xulosasi ilova qilinadi) yuzasidan Xalq deputatlari Buloqboshi tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.Andijon viloyati komissiyasining Buloqboshi tumanidagi 19 ta obyektni nomlash, qayta nomlash va davlat reyestr bazasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha taklifi ekspert komissiyasi xulosasi hamda Buloqboshi tumani hokimi maslahatchisi A.Almatovning 2022-yil 9-apreldagi 1-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin

2.Respublika ekspertiza xulosasiga asosan, MFY va ko‘cha nomlarini qayta nomlash va 4 ta yangi tashkil etilgan ko‘chalarga nom berilishi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (X.Xolmatova) zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **O'.Mamurov**

Xalq deputatlari Buloqboshi tuman
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-61-1-1-20-K/23-son qaroriga
1-ilova

"TASDIQLAYMAN"
Ekspert komissiyasi raisi
T.M.Abdullayev
(imzo, f.i.sh.)
20__ yil "__"

Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida

EKSPERT XULOSASI

Andijon viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyasining 2021-yil 25-noyabrdagi **11-34/15**-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Andijon viloyati komissiyasining **Buloqboshi tumanidagi 19 ta** obyektni nomlash, qayta nomlash va davlat reyestr bazasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish natijalariga ko'ra, shuningdek tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Ekspert komissiyasi quyidagi xulosaga keldi:

Andijon viloyati komissiyasi hamda **Buloqboshi tumani** komissiyasi tomonidan taqdim etilgan jami **19 ta** geografik obyektni nomlash va qayta nomlash bo'yicha taklifidan **18 ta** obyektning nomi qonun hujjatlari talablariga muvofiq. 1 **ta** obyekt nomini davlat reyestr bazasidan o'chirish uchun xat bilan murojaat qilinishi kerak .

Buloqboshi tumani

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o'rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko'cha	Raish MFY	Yuqori Raish	Yuqori Raish	**Tarixiy nom** Raish nomining kelib chiqishi bundan 105-yil muqaddam ushbu qishloqqa ariq ochilgan ushbu ariqdan suv yangi ariqning hech qayeridan toshmasdan ravon ketganligi bois "Roish" ketdi degan ekan. Shundan buyon ushbu qishloqning nomi roish keyinchalik og'izdan-og'izga o'tib "Raish" nomiga o'zgarib ketgan. Raish qishlogi hududi katta

					bo‘lganligi sababli ariqning bir tomoni yuqori qismini **“Yuqori raish”** deb nomlangan. **Ushbu nom bazada qoldiriladi. Muvofiq**
2.	Ko‘cha	Raish MFY	O‘rta Raish	O‘rta Raish	**Tarixiy nom** Raish nomining kelib chiqishi bundan 105 yil muqaddam ushbu qishloqqa ariq ochilgan ushbu ariqdan suv yangi ariqning hech qayeridan toshmasdan ravon ketganligi bois “Roish” ketdi degan ekan. Shundan buyon ushbu qishloqning nomi roish keyinchalik og‘izdan-og‘izga o‘tib “Raish” nomiga o‘zgarib ketgan. Raish qishlogi hududi katta bo‘lganligi sababli ariqning bir tomoni yuqori qismini **“O‘rta Raish”** deb nomlangan. **Ushbu nom bazada qoldiriladi. Muvofiq**
3.	Ko‘cha	SharqYulduzi MFY da mavjud emas.	Tayaka	Tayaka	**Tarixiy nom** qirg‘iz millatiga mansub shaxslar yashaydigan ko‘cha Respublikada tanlovi g‘olibi Tayaka ko‘chasi tuman toponimiya komissiyasing 2013-yil 18-dekabrdagi 424-sonli qaroriga asosan Nurzamin MFY dan SharqYulduzi MFY hududiga o‘tkazilgan. **Ushbu nom bazada qoldiriladi. Muvofiq**
4.	Ko‘cha	Zarg‘aldoq MFY	Tuyalas	Billur, Mehnatobod, Gulzor	Takliflardan **Billur** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Mahalla	Buloqboshi tumani	Balandchek	Balandchek	**Ushbu nom bazada qoldiriladi. Muvofiq**

		(Neftprom qishlog'i)			
6.	Mahalla	Buloqboshi tumani (Shirmonbuloq qishlog'i)	Qaqir	Qaqir	**Tarixiy nom** mahalla nuroniylari qat'iy turib olgan. Shirmonbuloq qishlog'ining ko'p qismi botqoqliklardan iborat bo'lganligi uchun xozirgi qaqir hududi quqruqlikdan iborat bo'lganligi sababli bu yerlarni "Qaqir" quruq yer deb atashgan. Shu yerda yashovchi fuqarolarning ko'p qismi bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi hamda bu xaqda Mirzakalon Ismoiloyning "Farg'ona tong otguncha" asarida ham "Qaqirliklar" haqida gap ketganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. "Qaqir" so'zing ma'nosi qaqrab yotgan yer emas balki **"Tog'larni bog' qilgan zaxmatkash va mehnatkash ota-bobolarimizni buyuk ishlarini hozirgi avlodlarga eslatib turuvchi nomdir " Ushbu nom bazada qoldiriladi. Muvofiq**
7.	Mahalla	Buloqboshi tumani (Raish aholi punkti)	Raish	Raish	**Ushbu nom bazada qoldiriladi. Muvofiq**
8.	Mahalla	Buloqboshi qishlogi	Toshkechik	Toshkechik	**Ushbu nom bazada qoldiriladi. Muvofiq**
9.	Ko'cha		Muruvvat	Boymahalla, Buloqboshi	Takliflardan **Buloqboshi** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Ko'cha	Zarg'aldoq MFY	Shukrona	Yangi hayot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Ko'cha	Sarbontepa MFY	Sho'rtepa	Nurafshon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Ko'cha	Qashqar MFY	Shotilik	Lolazor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Ko'cha	Istiqlol MFY	Gulzor	Bodomzor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

14.	Ko'cha	Sanoat MFY	Kattatol	Mo'tabar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Ko'cha	Baynalminal MFY	Yettikapa	Yettikapa	Baynalminal MFYda bunday ko'cha **mavjud emas. Ushbu nomni Davlat reyestridan o'chirish uchun tuman hokimligidan xat bilan murojaat qilinishi kerak. Shungi asosan Davlat reyestr bazasidan chiqarib beriladi.**
1.	Ko'cha	Xonatepa MFY	Ittifoq	Sarchashma	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Ko'cha	Barlos MFY	Nomsiz	Ziyokor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Ko'cha	Barlos MFY	Nomsiz	Birlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Ko'cha	Barlos MFY	Nomsiz	Ifiixor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

Ekspert komissiyasi a'zolari:

I.M. Ergashov _____

D.N.Kamalova _____ (imzo)

O.I.Fayziyeva _____ (imzo)

D.D.Ro'zaqulov _____ (imzo)